

BOBUR – ADOLATLI SHOH VA BUYUK SHOIR



BOBUR – ADOLATLI SHOH VA BUYUK SHOIR

(14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun)

Zahiriddin Muhammad Bobur hayotning og'ir sinovlarini boshidan kechirganida endigina 12 yoshda edi. Shu yoshida taxtga chiqish, davlatni boshqarish, xalqni adolat bilan idora qilib, mamlakat sarhadlarini g'animlardan himoya qilish...

O'shanda Movarounnahr ijtimoiy hayoti va siyosiy ichki nizolar girdobiga tushib qolgan, Sohibqiron Amir Temur barpo etgan davlat tanazzulga yuz tutgan, temuriy vorislar mamlakatni parokanda holatga keltirib qo'ygan edi. Bobur shunday bir paytda Andijonda turib, Samarqandga ko'p bora intiladi. Uning niyati bobosi Amir Temur saltanati sohibi bo'lish edi. Va ikki bora



munosabatlari, jug'rofiy mavqeyi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tog'lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari hamda ularning yashash sharoitlari, urf-odatlarini, muhim tarixiy inshootlari — hindlar ibodatxonalari va musulmonlarning masjidlari, to'y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hozirga qadar hayratda qoldirib kelmoqda.

Aytish joizki, Hindiston farzandi Javoharlal Neru «Bobur – dilbar shaxs. Uyg'onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir... Uning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi, san'atda, hayotda, me'morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha taraqqiyot yuz berdi», deganida tamomila haq edi.

(14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun)

Zahiriddin Muhammad Bobur hayotning og'ir sinovlarini boshidan kechirganida endigina 12 yoshda edi. Shu yoshida taxtga chiqish, davlatni boshqarish, xalqni adolat bilan idora qilib, mamlakat sarhadlarini g'animlardan himoya qilish...

O'shanda Movarounnahr ijtimoiy hayoti va siyosiy ichki nizolar girdobiga tushib qolgan, Sohibqiron Amir Temur barpo etgan davlat tanazzulga yuz tutgan, temuriy vorislar mamlakatni parokanda holatga keltirib qo'ygan edi. Bobur shunday bir paytda Andijonda turib, Samarqandga ko'p bora intiladi. Uning niyati bobosi Amir Temur saltanati sohibi bo'lish edi. Va ikki bora Samarqandni egallaydi, bu voqealar 1498- va 1500-yillarga to'g'ri keladi. Bu orada Movarounnahr hududiga Shayboniyxon xurujlari avj oladi, birin-ketin temuriyzodalar qo'l ostidagi hududlar mahv etila boshlaydi. Bobur ilojsiz ahvolda ona yurtini tark aylashga majbur bo'ladi. 1504-yilda avval Hisor, keyin Kobulga yo'l oladi. U kelajak taqdirini ayni shu mintaqalardan izlaydi, bu esa oson kechmaydi.

Hindiston mo'jizaviy o'lka, u qadim-qadimdan kishilarni o'ziga rom etgan. Bu maftunkor o'lka Boburni ham ko'pdan buyon qiziqtirib kelar edi. Bobur 1525-yili Hindistonga 1200 kishilik qo'shini bilan lashkar tortib, Ibrohim Lodiyning 100000 nafar askar va 1000 ta fildan iborat qo'shiniga qarshi janglarda g'olib keladi va bu afsonaviy o'lkaning shimoliy qismlariga egalik qiladi. Uning hukmronligi davrida insoniylikka asoslangan adolatli qonunlar sharofati bilan Hindistonda siyosiy muhit barqarorlashib, o'lka yarlari

birlashadi. Shaharlar obodonlashtirilib, savdo-sotiq to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Bobur bog'-rog'lar yaratishga homiylik qilgan adolatli shoh sifatida taniladi. Shu o'rinda 332 yil davom etgan boburiylar sulolasi davrida ham Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish keng miqyosda yoyilganini, o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblari mujassam etgan mukammal bir ma'naviy-ruhiy muhit vujudga kelganligini ta'kidlash joiz.

Ulug' shoh Bobur Hindistonda davlat ishlari bilan bir qatorda, o'zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettiradi. Uning hassos qalbidagi sohir tuyg'ulari betakror she'riyati, mag'zi to'q nasriy asarlariga ko'chadi. Bugun bizgacha Boburdan o'zbek tilida yaratilgan bir she'riy devon, «Boburnoma» (asli nomi «Vaqoye» – «Voqealar»), Xoja Ahror Valiy (1404–1490)dan qilingan «Volidiya» she'riy tarjimai, aruz nazariyasiga doir «Mufassal», islom ruknlari haqida «Mubayyin», «Musiqiy ilmi», «Harb ishi», «Xatti Boburiy» asarlari yetib kelgan.

Nozik ta'b shoir she'rlarining aksarida esa uning o'z hayoti lavhalariga va lahzalariga ishoralar sezilarli darajada bayon etilgan. Xususan,

**Charxning men ko'rmagan
jabr-u jafosi qoldimu?
Xasta ko'nglim chekmagan
dard-u balosi qoldimu?**

– deya bitilgan misralar qancha dardchil bo'lsa, shuncha jozibali. Qancha qayg'uli bo'lsa, shuncha yorug'dir. Qalblarga chuqur botib ketguvchi bu qayg'uli satrlarda ertaning, kelajakning yop-yorug' umidlari mujassam. Xuddi shu jihati bilan ham Bobur baytlari qadrlil va inson ruhiyatiga yaqindir.

Shoh va shoir ijodining yana bir muhim mavzusi Vatanga muhabbat tuyg'usi, yurt sog'inchi, unga qaytish umidi bo'lganini ushbu misralardan anglash qiyin emas.

**Tole' yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishnikim ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.**

«Boburnoma» — Boburning shoh asari. Bu asarda Boburning boshidan kechirganlari, yo'l qo'ygan xatolari, alam-u izzat, g'alaba va mag'lubiyatlari hamda shajarasi ochiq yozilgan. Joy nomlari, u yerdagi jonotlar hamda o'simliklar atroflicha yoritilgan. Asarda o'sha davrning mashhur kishilariga adolatli tarzda ta'rif berilganki, kitobni o'qigan odam Bobur tafakkuriga, bilimiga, uning sarkardalik qobiliyatiga, odil va oqilligiga qoyil qoladi. Asarda

keltirilgan baytlar, g'azal, ruboiylar esa kitobning shoh bezagi sifatida o'quvchi qalbida o'chmas iz qoldiradi. Bu haqda Boburning o'zi bunday yozadi:

**Bu olam aro ajab alamlar ko'rdim,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdim,
Har kim bu «Vaqoye'»ni o'qur bilgaykim,
Ne ranj-u... ne mehnat-u... ne g'amlar ko'rdim.**

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, hozirga qadar mazkur memuar asar dunyoning 30 dan ortiq, xususan – ingliz, fransuz, nemis, italyan, golland, fors, urdu, rus, yapon, turk, tojik tillariga tarjima qilingan. Bu asardagi juda ko'p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o'zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug'rofiy mavqeyi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tog'lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari hamda ularning yashash sharoitlari, urf-odatlar, muhim tarixiy inshootlari — hindlar ibodatxonalari va musulmonlarning masjidlari, to'y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hozirga qadar hayratda qoldirib kelmoqda.

Aytish joizki, Hindiston farzandi Javoharlal Neru «Bobur – dilbar shaxs. Uyg'onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir... Uning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi, san'atda, hayotda, me'morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha taraqqiyot yuz berdi», deganida tamomila haq edi.

**Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.**

Shu singari she'rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chorlagan buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur umri davomida yaxshilikni istab yashadi. Qo'lidan kelgancha odamlarga yaxshilik qildi. Endigina 47 yoshni qarshilagan, ayni kuchga to'lgan chog'ida o'z umrini farzandi Humoyunga «sadqa» qilib yubordi. Ammo ko'hna tarix sahnida adolatli shoh va buyuk shoir o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir hamda ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida o'chmas iz qoldirgan siymolardan biri bo'lib qoldi. Ko'ngliga yorug' maqsad tuggan insonlarga, ayniqsa, yoshlarga ulug' bobokalonimizning jasurlik, fidoyilik, yurtparvarlik va oilasiga, avlodlariga oqibatlilik, jonfidoligi hamisha o'rnakdir.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.**

БОБУР – АДОЛАТЛИ ШОҲ ВА БУЮК ШОИР

Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаётнинг оғир синовларини бошидан кечирганида эндигина 12 ёшда эди. Шу ёшида тахтга чиқиш, давлатни бошқариш, халқни адолат билан идора қилиб, мамлакат сарҳадларини ғанимлардан ҳимоя қилиш...

Ўшанда Мовароуннаҳр ижтимоий ҳаёти ва сиёсий ички низолар гирдобига тушиб қолган, Соҳибқирон Амир Темур барпо этган давлат таназзулга юз тутган, темурий ворислар мамлакатни пароканда ҳолатга келтириб қўйган эди. Бобур шундай бир пайтда Андижонда туриб, Самарқандга кўп бора интилади. Унинг нияти бобоси Амир Темур салтанати соҳиби бўлиш эди. Ва икки бора Самарқандни эгаллайди, бу воқеалар 1498- ва 1500 йилларга тўғри келади. Бу орада Мовароуннаҳр ҳудудига Шайбонийхон хуружлари авж олади, бирин-кетин темурийзодалар қўл остидаги ҳудудлар маҳв этила бошлайди. Бобур иложсиз аҳволда она юртини тарк айлашга мажбур бўлади. 1504 йилда аввал Ҳисор, кейин Кобулга йўл олади. У келажак тақдирини айна шу минтақалардан излайди, бу эса осон кечмайди.

Ҳиндистон мўъжизавий ўлка, у қадим-қадимдан кишиларни ўзига ром этган. Бу мафтункор ўлка Бобурни ҳам кўпдан буён қизиқтириб келар эди. Бобур 1525 йили Ҳиндистонга 1200 кишилик қўшини билан лашкар тортиб, Иброҳим Лодийнинг 100000 нафар аскар ва 1000 та филдан иборат қўшинига қарши жангларда ғолиб келади ва бу афсонавий ўлканинг шимолий қисмларига эгалик қилади. Унинг ҳукмронлиги даврида инсонийликка асосланган адолатли қонунлар шарофати билан Ҳиндистонда сиёсий муҳит барқарорлашиб, ўлка ерлари бирлашади. Шаҳарлар ободонлаштирилиб, савдо-сотиқ тўғри йўлга қўйилади. Бобур боғ-роғлар яратишга ҳомийлик қилган адолатли шоҳ сифатида танилади. Шу ўринда 332 йил давом этган бобурийлар сулоласи даврида ҳам Ҳиндистонни ободонлаштириш, унда ҳозиргача машҳур бўлган меъморий ёдгорликлар, боғлар, кутубхоналар, карвонсаройлар қурдириш кенг миқёсда ёйилганини, ўша даврнинг илғор ва зехни ўткир олимлари, шоирлари, мусикашунослари ва давлат арбобларини мужассам этган мукаммал бир маънавий-руҳий муҳит вужудга келганлигини таъкидлаш жоиз.

Улуғ шоҳ Бобур Ҳиндистонда давлат ишлари билан бир қаторда, ўзининг адабий-бадий фаолиятини ҳам давом эттиради. Унинг ҳассос қалбидаги соҳир туйғулари бетакрор шеърятни, мағзи тўқ насрий асарларига кўчади. Бугун бизгача Бобурдан ўзбек тилида яратилган бир шеърӣ девон, «Бобурнома» (асли номи «Вақое» – «Воқеалар»), Хожа Аҳрор Валий (1404–1490)дан қилинган «Волидия» шеърӣ таржимаси, аруз назариясига доир «Муфассал», ислом рукнлари ҳақида «Мубаййин», «Муסיкий илми», «Ҳарб иши», «Хатти Бобурий» асарлари етиб келган.

Нозик таъб шоир шеърларининг аксариди эса унинг ўз ҳаёти лавҳаларига ва лаҳзаларига ишоралар сезиларли даражада баён этилган. Хусусан,

**Чархнинг мен кўрмаган
жабру жафоси қолдиму?
Хаста кўнглим чекмаган
дарду балоси қолдиму?**

– дея битилган мисралар қанча дардчил бўлса, шунча жозибали. Қанча қайғули бўлса, шунча ёруғдир. Қалбларга чуқур ботиб кетгучи бу қайғули сатрларда эртанинг, келажакнинг ёп-ёруғ умидлари мужассам. Худди шу жиҳати билан ҳам Бобур байтлари қадрли ва инсон руҳиятига яқиндир.

Шоҳ ва шоир ижодининг яна бир муҳим мавзуси Ватанга муҳаббат туйғуси, юрт соғинчи, унга қайтиш умиди бўлганини ушбу мисралардан англаш қийин эмас.

**Толёй йўқки жонимга бололиғ бўлди,
Ҳар ишниким айладим, хатолиғ бўлди.
Ўз ерни қўйиб Ҳинд сори юзландим,
Ё раб, нетайин, не юз қаролиғ бўлди.**

«Бобурнома» — Бобурнинг шоҳ асари. Бу асарда Бобурнинг бошидан кечирганлари, йўл қўйган хатолари, аламу изтироб, ғалаба ва мағлубиятлари ҳамда шажараси очиқ ёзилган. Жой номлари, у ердаги жонзотлар ҳамда ўсимликлар атрофлича ёритилган. Асарда ўша даврнинг машҳур кишиларига адолатли тарзда таъриф берилганки, китобни ўқиган одам Бобур тафаккурига, билимига, унинг саркардалиқ қобилиятига, одил ва оқиллигига қойил қолади. Асарда келтирилган байтлар, ғазал, рубоийлар эса китобнинг шоҳ беағи сифатида ўқувчи қалбида ўчмас из қолдиради. Бу ҳақда Бобурнинг ўзи бундай ёзади:

**Бу олам аро ажаб аламлар кўрдим,
Олам элидин турфа ситамлар кўрдим,
Ҳар ким бу «Вақоеъ»ни ўқур билгайким,
Не ранжу... не меҳнату... не ғамлар кўрдим.**

Яна бир эътиборли жиҳати шундаки, ҳозирга қадар мазкур мемуар асар дунёнинг 30 дан ортиқ, хусусан – инглиз, француз, немис, итальян, голланд, форс, урду, рус, япон, турк, тожик тилларига таржима қилинган. Бу асардаги жуда кўп долзарб иқтисодий, ижтимоий масалалар, юқорида номлари келтирилган вилоятларнинг ўзаро сиёсий-иқтисодий ва савдо муносабатлари, жуғрофий мавқеи, иқлими, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, тоғлари, дарёлари, халқлари, қабила ва элатлари ҳамда уларнинг яшаш шароитлари, урф-одатлари, муҳим тарихий иншоотлари — ҳиндлар ибодатхоналари ва мусулмонларнинг масжидлари, тўй ва дафн маросимлари ҳақида ниҳоятда нодир маълумотлар

тарихий ва адабий мерос сифатида дунё олимларини ҳозирга қадар ҳайратда қолдириб келмоқда.

Айтиш жоизки, Ҳиндистон фарзанди Жавоҳарлал Неру «Бобур – дилбар шахс. Уйғониш даври ҳукмдорининг ҳақиқий намунасидир... Унинг Ҳиндистонга келиши туфайли Ҳиндистонда буюк ўзгаришлар содир бўлди, санъатда, ҳаётда, меъморчиликда ва маданиятнинг бошқа соҳаларида янги тараққиёт юз берди», деганида тамомила ҳақ эди.

**Ҳар кимки вафо қилса, вафо топқусидур,
Ҳар кимки жафо қилса, жафо топқусидур.
Яхши киши кўрмагай ёмонлиғ ҳаргиз,
Ҳар кимки ёмон бўлса, жазо топқусидур.**

Шу сингари шеърларида ҳар доим одамларни яхшиликка, адолат, инсонпарварликка, юксак инсоний туйғуларни қадрлашга чорлаган буюк ватандошимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобур умри давомида яхшиликни истаб яшади. Қўлидан келганча одамларга яхшилик қилди. Эндигина 47 ёшни қаршилаган, айна кучга тўлган чоғида ўз умрини фарзанди Ҳумоюнга «садқа» қилиб юборди. Аммо кўҳна тарих саҳнида адолатли шоҳ ва буюк шоир ўзининг маълум ва машҳур асарлари билан тарихнавис адиб, лирик шоир ҳамда ижтимоий масалалар ечимига ўз ҳиссасини қўшган олим сифатида ўчмас из қолдирган сиймолардан бири бўлиб қолди. Кўнглига ёруғ мақсад тугган инсонларга, айниқса, ёшларга улуг бобокалонимизнинг жасурлик, фидойилик, юртпарварлик ва оиласига, авлодларига оқибатлилик, жонфидолиги ҳамиша ўрнақдир.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,

ўз мухбиримиз.